Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 10

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№10 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-10

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик, Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адҳам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти

Ғоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети

Маҳкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогока университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент, Азербайджон давлат иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Гулистон давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент, Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Жиззах давлат педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент, Наманган давлат университети

Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Ўзбекистон Миллий университети

Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти, Денов тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Абдуносирова Озодахон Ботиржон қизи
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Фарғона давлат университети

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Миллий университети

Page Maker | Верстка | Са ,ифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Laziz Alimardonov
YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MA’NAVIY TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI……5

2. Doniyor Jumaniyozov
XIV–XV ASRLARDA XORAZMNING SAVDO TIZIMIDAGI O‘RNI: SHAHARLAR, KARVON YO‘LLARI VA NUMIZMATIK MANBALAR TAHLILI……11

3. Nilufar Djurayeva
O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVRI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLASHUVIGA DOIR DAVLAT SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA QIYOSIY TAHLIL……17

4. Baxtiyor Mirkomilov
BADIIY QADRIYATLAR – MILLIY BOYLIK VA JAHON DURDONALARI SIFATIDA……30

5. Murod Raxmatov
AHMAD ZAKI VALIDIY TO‘G‘ONNING XORIJDAGI ILMIY FAOLIYATI……39

6. Nilufar Raxmatova
GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNI MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT VA TARIXIY MEROS AN’ANASIDA TARBIYALASH TAMOYILLARI……46

7. Raxmatjon Saotboyev
XVIII–XX ASR BOSHLARIDA MARKAZIY OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY - BOSHQARUV TIZIMI VA TASHQI SIYOSIY OMILLAR TA’SIRIDAGI O‘ZGARISHLAR…53

8. Ikromjon Umarov
XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA SURXON-SHEROBOD VOHASIDA SUG‘ORISH INSHOOTLARI VA SUVDAN FOYDALANISHNING AN’ANAVIY SHAKLLARI……..58

9. Ra’no Xatamova
O‘ZBEKISTONDA XIX-XXI ASR GILAMDO‘ZLIK TARIXINING MANBASHUNOSLIGI…65

10. Raxim Xudoyberdiyev
TERMIZ VA CHAG‘ONIYON HUDUDLARIDA SIRLANGAN KERAMIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI……70

11. Муродилла Ҳайдаров
ОКТЯБР ТЎНТАРИШИ: БОЛЬШЕВИКЛАРНИНГ СОЦИАЛ ТАЖРИБАСИ ВА ҲАРАКАТЛАНТИРУВЧИ КУЧЛАР НИСБАТИ……76

12. Озоджон Қувондиқов
ЎЗБЕКИСТОН ВА ГЕРМАНИЯ ЎРТАСИДАГИ ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КОНРАД АДЕНАУЭР ЖАМҒАРМАСИНИНГ ЎРНИ……85

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

UO‘K: 94 (575.1):32 “19”

Murod G‘aybullayevich Raxmatov,
Navoiy davlat universiteti professori,
tarix fanlari doktori (DSc),
E-mail: raxmatov.80@bk.ru

AHMAD ZAKI VALIDIY TO‘G‘ONNING XORIJDAGI ILMIY FAOLIYATI

For citation: Murod G. Rakhmatov. AHMAD ZAKI VALIDI TOGAN'S SCIENTIFIC ACTIVITIES ABROAD. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 10.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.23674250

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asr boshlarida turkiy xalqlar tarixi va madaniyatini o‘rganishda muhim o‘rin tutgan tarixchi, turkolog va sharqshunos Ahmad Zaki Validiy Toganing xorijdagi faoliyati tahlil qilinadi. Uning Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Fransiya, Germaniya va Avstriyada olib borgan ilmiy izlanishlari, xalqaro ilmiy muhit bilan aloqalari hamda Ibn Fadlon merosini o‘rganishdagi xizmatlari yoritiladi. Maqolada olimning xorijdagi faoliyati natijasida turkiy xalqlar tarixi, Markaziy Osiyo va islom sivilizatsiyasiga oid ilmiy materiallarning xalqaro ilmiy muomalaga kiritilgani ko‘rsatib beriladi. Maqolada Ahmad Zaki Validiyning xorijdagi faoliyati arxiv fondlari, milliy va xorijiy davriy ma’lumotlari asosida ilmiy yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ahmad Zaki Validiy, armiya, arxiv, ekspeditsiya, inqilob, matbuot, mustaqillik, muhojir, totalitar, partiya, g‘oya, sovet, hukumat.

Рахматов Мурод Гайбуллаевич,
Профессор Навоийского государственного университета,
доктор исторических наук (DSc),
E-mail: raxmatov.80@bk.ru

НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АХМАДА ЗАКИ ВАЛИДИ ТОГАНА ЗА РУБЕЖОМ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется зарубежная деятельность историка, тюрколога и востоковеда Ахмада Заки Валиди Тоги, сыгравшего важную роль в изучении истории и культуры тюркских народов в начале XX века. Освещаются его научные исследования в Иране, Афганистане, Индии, Франции, Германии и Австрии, связи с международной научной средой, а также заслуги в изучении наследия Ибн Фадлана. В статье указывается, что в результате деятельности ученого за рубежом научные материалы по истории тюркских народов, Центральной Азии и исламской цивилизации были введены в международный научный оборот. В статье научно освещена деятельность Ахмада Заки Валиди за рубежом на основе архивных фондов, национальных и зарубежных периодических данных.

Ключевые слова: Ахмад Заки Валиди, армия, архив, экспедиция, революция, пресса, независимость, эмигрант, тоталитарный, партия, идея, советский, правительство.

Murod G. Rakhmatov,
Professor at Navoi State University,
doctor of historical sciences (DSc),
E-mail: raxmatov.80@bk.ru

AHMAD ZAKI VALIDI TOGAN'S SCIENTIFIC ACTIVITIES ABROAD

ABSTRACT

This article analyzes the foreign activities of Ahmad Zaki Validi Toga, a historian, Turkologist, and Orientalist who played a significant role in studying the history and culture of Turkic peoples at the beginning of the 20th century. It highlights his scientific research in Iran, Afghanistan, India, France, Germany, and Austria, his connections with the international scientific community, and his contributions to the study of Ibn Fadlan's heritage. The article demonstrates that as a result of the scholar's work abroad, scientific materials on the history of Turkic peoples, Central Asia, and Islamic civilization have been introduced into international scientific circulation. The article provides a scientific coverage of Ahmad Zaki Validi's activities abroad based on archival funds, national, and foreign periodical information.

Index Terms: Ahmad Zaki Validi, army, archive, expedition, revolution, press, independence, emigrant, totalitarian, party, idea, Soviet, government.

Kirish:

XX asrning birinchi yarmida turkiy xalqlar tarixi, etnografiyasi, madaniyati va yozma manbalarini xalqaro miqyosda tadqiq etgan olimlar orasida Ahmad Zaki Validiy Togan alohida o‘rin egallaydi. U nafaqat tarixchi va turkolog, balki qo‘lyozma manbalarni izlash, ularni ilmiy muomalaga kiritish va turkiy xalqlar tarixini jahon sharqshunosligi doirasida tadqiq etishga katta hissa qo‘shgan olim sifatida tanilgan. Ahmad Zaki Validiy ko‘plab mamlakatlarda siyosiy va ilmiy faoliyat olib borgan, shu bilan birga ilmiy hamjamiyatlarga asos solgan va turk-tatar xalqlari tarixi bo‘yicha 400 ga yaqin asar yozgan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Validiyning ilmiy merosi ko‘pincha uning siyosiy faoliyati bilan birgalikda yoritiladi. Biroq uning xorijiy mamlakatlardagi ilmiy izlanishlari, xalqaro sharqshunoslik muhitidagi faoliyati va turkologiya rivojiga qo‘shgan hissasini alohida tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi Ahmad Zaki Validiy Toganing xorijdagi ilmiy faoliyatini tarixiy-manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish va uning xalqaro turkologiya rivojiga qo‘shgan hissasini aniqlashdan iborat.

Metodlar:

Tadqiqotda tarixiylik, xolislik, tizimlilik va manbalarni qiyosiy tahlil qilish tamoyillaridan foydalanildi. Ahmad Zaki Validiy Toganing ilmiy faoliyatini o‘rganishda uning ilmiy asarlari, xotiralari, biografik ma’lumotlar hamda zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari asosiy manba sifatida olindi.

Mustafo Cho‘qay Fransiyada bir davlat odamidan ko‘ra ko‘proq Turkiston mustaqilligi uchun kurashayotgan bir munavvar va mafkurachi, xalqaro munosabatlar bo‘yicha kuchli mutaxassis, tahlilchi va analitik shaxs sifatida eng oldingi safga chiqdi. Qulay fursat va imkoniyat bo‘ldi deganda bolsheviklarning Turkistonda bir totalitar rejim o‘rnatganligiga e’tiborni qaratdi hamda o‘z vatani uchun mustaqillik g‘oyalarini da’vat etdi. Shu maqsadda Cho‘qay Parijda turib ikkita tashkilot bilan ishladi. Bu tashkilotlarning birinchisi Turkiston Milliy Birligi tashkiloti bo‘lib, u Ahmad Zaki Validiy tomonidan dastlab 1921-yil 2-avgustda Buxoroda O‘rta Osiyo milliy musulmon jamiyatlari federatsiyasi nomi bilan tashkil qilingan edi. Ahmad Zaki Validiy tashkilot

Markaziy Qo‘mitasiga rais qilib saylangan. Markaziy Qo‘mita tarkibiga o‘sha paytda Turkiston va Buxoroning nufuzli siyosiy arboblari kirgan va tashkilotning dasturi tasdiqlangan edi[1].

Turkiston Milliy Birligi (TMB) qo‘mitasi tomonidan Istanbul va Berlinda “Yeni Turkistan”[2] va “Yaş Türkistan”[3] jurnallari chop etildi. Bu jurnallar faoliyatiga Mustafo Cho‘qay, Usmon Xo‘ja va Ahmad Zaki Validiy rahbarlik qilishdi.

Turkiyalik o‘zbek muhojiri Ahad Andijoniyning keyinchalik yozishicha, bu davrda Afg‘oniston hududiga turk zobiti Hoji Somiy va uning 35 nafar tarafdorlari kelishgan[4]. Ahmad Zaki Validiy ham Afg‘onistonda siyosiy muhojir bo‘lib yashayotgan, istiqbolda Turkiston Milliy Birligi qo‘mitasi faoliyati bilan bog‘liq dastur tuzish ishlari bilan band edi. Usmon Xo‘ja bilan Ahmad Zaki Validiy Kobulda bir necha marta o‘zaro uchrashadilar va Afg‘onistondan turib milliy mujodala harakatini davom ettirishga kelishib oladilar[5].

Ahmad Zaki Validiy 1923-yil 21-fevralda Anov va Ashxoboddan Mashhadga qarab yo‘lga chiqadi hamda Eronga o‘tib ketadi. U 28-fevralda Eronning Muhammadobod, 11-martda Tus (mashhur shoir Firdavsiy va Imom G‘azzoliyning vatani), 12-mart kuni Mashhadga kelib, Lochali karvonsaroyiga tushadi. Validiyning keyinchalik yozishicha, unga Xuroson hokimi va bu yerdagi qo‘shinlar bosh qo‘mondoni juda katta hurmat ko‘rsatishgan. Validiy bu shaharda ham tarixiy joylarni kezib va mashhur kishilarning maqbaralarini ziyorat qilib, kutubxonalarda ishlaydi hamda kitob do‘konlaridan ko‘p miqdorda kitob sotib oladi. Bu yerda turgan Afg‘oniston konsuli Sardor Abdulazizxon bilan uchrashib, Mashhudda besh hafta qoladi. Anqaradan kelgan elchixona xodimlari Somibey, Tahsinbey, Ko‘pruli va boshqalar bilan Mashhadda ko‘rishadi. Sovet davlati elchisi M.Hakimov va Toshkentdan yuborilgan Sa’dullaxo‘ja Tursun Xo‘jayev bilan ham uchrashadi. So‘ngra Mashhaddan Kobulga jo‘naydi[6].

Ahmad Zaki Validiy tomonidan 1922-yil 23-iyunda Samarqand viloyati Bedana qishlog‘ida yozilgan “Sharqda ijtimoiy inqilob va reaksiyaga qarshi kurashda sharq inqilobchi ziyolilarining vazifalari” nomli 26 betlik maqolasi bu paytda Turkiyada bosiladi. Maqolada kommunizm bilan kapitalizm o‘rtasidagi kurashning kelajakda nima bilan tugashi haqida, Marks zamonidagi kommunizm va uning Troskiy kabi hozirgi vakillari o‘z sofligini yo‘qotib, imperialistik kuchli davlat qo‘lida zaif xalqlarni ekspluatatsiya qilishda qo‘g‘irchoqqa aylanib qolgan bir vaqtda Sharqdagi sotsialistik ijtimoiy adolat va islohot tarafdorlari qanday ishlar qilishi mumkinligi haqida gap boradi.

Validiy bu maqolasini o‘zbekcha yozishiga qaramasdan uni Eron, Afg‘oniston va Turkiya hukumatlariga hamda ko‘plab kishilarga, jumladan Istanbuldagi ozarboyjonlik Muhammadamin Rasulzodaga, Berlindagi Yosh buxoroliklar vakili Mirzo Abdulvohid Munzimga, qozoqlardan Azimbekka, tatarlardan Fuod To‘qtarovga, Parijda yashovchi Islombek Xudoyorxonov, Alimardon To‘pchiboshev, Mustafo Cho‘qayga, Lahordagi shoir Muhammad Iqbolga va Tehrondagi Said Hasan Taqizodaga jo‘natadi. Rasulzoda Istanbulga kelgach, maktubni qisqartirgan holda “Yangi Kavkaz” jurnalida e’lon qilgach, maqolaning Turkiyadagi ta’siri kuchli bo‘ldi[7].

Tadqiqot natijalari:

Validiyning xorijdagi ilmiy faoliyatida Eron safari alohida ahamiyatga ega. 1923-yilda u Eron hududiga kelib, Mashhadda ilmiy izlanish olib bordi. Shu yerda u Imom Rizo kutubxonasidagi qo‘lyozmalar orasidan X asr arab sayyohi Ahmad ibn Fadlonning safariga oid muhim matnni aniqladi.

Ibn Fadlonning safarnomasi Volga bo‘yi, turkiy xalqlar va Sharqiy Yevropa tarixini o‘rganish uchun muhim yozma manba hisoblanadi. Shu sababli Togan tomonidan mazkur qo‘lyozmaning aniqlanishi nafaqat uning shaxsiy ilmiy faoliyati, balki o‘rta asr turkiy xalqlar tarixshunosligi uchun ham muhim ilmiy voqea bo‘ldi.

Eron safaridan keyin Validiy Afg‘onistonga yo‘l oldi. Hirot va Kobulda tarixiy obidalar, kutubxonalar va qo‘lyozmalarni o‘rgandi. U Afg‘oniston hududidagi tarixiy manbalarni yig‘ish va ularni ilmiy jihatdan tavsiflashga katta e’tibor qaratdi. Keyinchalik Hindistonga borib, Peshovar, Lohur va Bombey kabi shaharlarda bo‘ldi. Ushbu safarlar uning Sharq tarixiga oid manbashunoslik bilimlarini kengaytirishga xizmat qildi.

Shunday qilib, To‘g‘onning Eron, Afg‘oniston va Hindistondagi faoliyatini ilmiy ekspeditsiya xarakteridagi tadqiqotlar sifatida tavsiflash mumkin. Uning asosiy e’tibori tarixiy qo‘lyozmalarni aniqlash, ularning mazmunini o‘rganish va turkiy xalqlar tarixiga oid ma’lumotlarni ilmiy muomalaga kiritishga qaratilgan edi.

To‘g‘onning xorijdagi ilmiy faoliyatida Eron safari alohida ahamiyatga ega. 1923-yilda u Eron hududiga kelib, Mashhadda ilmiy izlanish olib bordi. Shu yerda u Imom Rizo kutubxonasidagi qo‘lyozmalar orasidan X asr arab sayyohi Ahmad ibn Fadlonning safariga oid muhim matnni aniqladi.

Ibn Fadlonning safarnomasi Volga bo‘yi, turkiy xalqlar va Sharqiy Yevropa tarixini o‘rganish uchun muhim yozma manba hisoblanadi. Shu sababli Validiy tomonidan mazkur qo‘lyozmaning aniqlanishi nafaqat uning shaxsiy ilmiy faoliyati, balki o‘rta asr turkiy xalqlar tarixshunosligi uchun ham muhim ilmiy voqea bo‘ldi.

Eron safaridan keyin Validiy Afg‘onistonga yo‘l oldi. Hirot va Kobulda tarixiy obidalar, kutubxonalar va qo‘lyozmalarni o‘rgandi. U Afg‘oniston hududidagi tarixiy manbalarni yig‘ish va ularni ilmiy jihatdan tavsiflashga katta e’tibor qaratdi. Keyinchalik Hindistonga borib, Peshovar, Lohur va Bombey kabi shaharlarda bo‘ldi. Ushbu safarlar uning Sharq tarixiga oid manbashunoslik bilimlarini kengaytirishga xizmat qildi.

Shunday qilib, To‘g‘onning Eron, Afg‘oniston va Hindistondagi faoliyatini ilmiy ekspeditsiya xarakteridagi tadqiqotlar sifatida tavsiflash mumkin. Uning asosiy e’tibori tarixiy qo‘lyozmalarni aniqlash, ularning mazmunini o‘rganish va turkiy xalqlar tarixiga oid ma’lumotlarni ilmiy muomalaga kiritishga qaratilgan edi.

Validiy 1923-yil 18-iyunda hamrohlari bilan Kobulga yetib kelgach, o‘zining bu shahardagi dastlabki kunlarini quyidagicha tasvirlaydi: “Biz yetib kelgan kunimizda Buxoro elchisi Hoshim Shoyiqni, Buxoro hukumatining sobiq raisi Usmon Xo‘ja va hamrohlarini qidirdik. O‘sha kuni Afg‘oniston tashqi ishlar vazirligi va Turukiya elchixonasida bo‘ldik. Elchi Faxri Posho meni mujohid deya, mahkam quchoqlab ko‘tardi va o‘pdi. 22-iyunda men Afg‘oniston tashqi ishlar vaziri Vali Muhammadxon va maorif vaziri Fayz Muhammadxon bilan uchrashdim”. Vali Muhammadxon Afg‘oniston ilmiy tafakkurini tiklash va taraqqiy ettirish bo‘yicha bir loyiha ishlab chiqishni Validiydan iltimos qiladi[8].

Usmon Xo‘ja hamda Ahmad Zaki Validiy 1923-yil yozida Kobulda muhojirlarning xorijda Turkiston mustaqilligi uchun kurash rejasini ishlab chiqdilar. Bu paytda Mustafo Cho‘qay Parijga kelib, u Yevropa mamlakatlarida e’lon qilgan turli maqolalari va safdoshlariga yozgan xatlari orqali mafkura jabhasida bolsheviklarga qarshi kurashni avj oldirib yuborgan edi[9].

1923-yil 26-28 iyunda Ahmad Zaki Validiy raisligida Kobulda Usmon Xo‘ja, Hoshim Shoyiq, Mirzo Asomiddin va boshqalar Turkiston Milliy Birligi (TMB) jamiyatining maxsus qurultoyi o‘tkazilib, unda milliy jamiyatning kelgusi faoliyati belgilab olindi. Validiyning yozishicha, TMB tomonidan quyidagicha qaror qabul qilingan:

1) Hoji Somibey [Salim Posho] va uning safdoshlari Turkistonni tark etishganligi munosabati bilan TMBni chet ellarda qo‘mita va bo‘limlarini tashkil etish va ular faoliyatini kuchaytirish hamda Kobul (Afg‘oniston), Turkiya va Fransiyada ishlarni aniq maqsadlar sari yo‘naltirish;

2) TMBning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini ochiqlash uchun maxsus jurnal tashkil etish. Bu ish Zaki Validiy zimmasiga yuklatildi. Validiy TMB jamiyati raisi lavozimida qoldirilib, Abdulhamid Orif Kobuldagi bo‘limning raisi, Usmon Xo‘ja Turkiya bo‘limi va Mustafo Cho‘qay Yevropada bo‘lim raisi etib tayinlandi, Hoshim Shoyiqni Afg‘oniston hukumati ruxsat bersa Yaponiyaga yuborish; Zaki Validiy bilan maslahatlashib, Parijda TMBning uy shtabini ochish, bu ishni Berlin va Istanbulda ham tashkil qilish, Validiyga Turkistondagi milliy ozodlik harakatlari tarixini yozish, iloji bo‘lsa uni xorijiy tillarda nashr etish va muammoga jahon hokimiyati e’tiborini qaratish vazifalari yuklandi. Sadriddinxon Sharifxo‘ja bilan To‘rabek Mashhadda qolib, Eron hukumatiga o‘zlarini Turkiston jamiyati vakillari sifatida tanitishlari zarur ekanligi belgilandi. Kobuldan ketgach, eng shoshilinch bajariladigan ishlar Usmon Xo‘ja, Abdulqodir Inon va Ahmad Zaki Validiy Angliya hukumatidan ruxsat olib, Hindistonga chiqib Peshovarga borgach,

Sadriddinxon Sharifxo‘ja, To‘rabek va shu vaqtda Chitralda bo‘lajak Abdulhamid Orifni chaqirib, kelgusi faoliyat rejasini ishlab chiqish mo‘ljallangan[10].

Bu paytda Kobulda bo‘lgan Usmon Xo‘ja va Mirzo Husamiddin ixtiyorida BXSR hukumatining safar uchun ajratilgan mablag‘idan bir qismi qolgan edi. Ular bu mablag‘ni jamiyat manfaatlari uchun ishlatishdi hamda 10-avgustda Hindistonga ketishdi. Keyinroq Validiy ham Usmon Xo‘ja yordamida Kobuldagi ingliz vakillariga murojaat qilib, Hindiston orqali Yevropaga ketishga ruxsat so‘raydi va Peshovardagi do‘stlar bilan ko‘rishish to‘g‘risidagi rejalarni bayon qiladi.

1923-yil 1-iyulda Usmon Xo‘ja, Validiy, Hoshim Shoyiq, Mirzo Husamiddin Lag‘monga kelib, Afg‘oniston hukumati vakili Muhammad Valixon bilan uchrashib, Istanbulda qiladigan ishlari haqida xabar berishadi[11].

Ahmad Zaki Validiy Kobuldagi ishlarini saranjomlagach, yaqin do‘stlari bilan 1923-yil 24-sentyabrda avtomobilda Kobuldan Hindistonga qarab yo‘lga chiqadi. Peshovar va Bombeyda bo‘ladi. Validiyning yozishicha, u Bombeyda bo‘lajak kutubxonasi uchun ko‘p kitoblar sotib oladi. “Xullas, qurolli kurashni tashlab, ilmiy kurashga otlandim. Kutubxonamning asosiy qismini esa Mashhad, Kobul va Bombeyda yig‘ilgan kitoblar tashkil qildi. Kitoblarni sandiqlarga joylab, Istanbulda paroxodda osongina yetib oldik. Kutubxonamning tashkil bo‘lishida Farg‘onadagi bosmachilar sardori Shermuxammadbekning ham hissasi bo‘ldi. U menga Mirxondning “Ravzat us-safo” asarini berdi”[12].

Ahmad Zaki Validiy Bombeyda turganida ko‘p vaqtini taniqli shoir, urdu va fors tillarida ijod qilgan Muhammad Iqbol (1877-1938) asarlarini o‘rganish bilan o‘tkazadi. Iqbol bu paytda Lahorda yashagan. O‘z paytida Iqbol she’rlari Turkiston qo‘rboshilari o‘rtasida ham mashhur bo‘lgan. Iqbol she’rlari orasida Turkistonga bag‘ishlangan hayajonlantiruvchi misralar ham bor edi. Uning bir asarida: “Temurning sozi buzildi, lekin ohanggi yashamoqda. Bu ohang Samarqandning boshqa bir sozi-la yangraydi”, - degan komil ishonch bildiriladi[13].

Ahmad Zaki Validiy 1923-yil kuzida Lahorda Muhammad Iqbol bilan uchrashishiga inglizlar ruxsat berishmaydi. Balki bu uchrashuv yuz berganida Validiy bilan muloqotdan so‘ng Iqbol Turkiston jadidlari va qo‘rboshilarining jasorati haqida she’r va dostonlar bitarmidi, yurtimizdagi milliy ozodlik harakati namoyandalari to‘g‘risida adabiy asarlar yozarmidi... .

Muhokama. Validiyning dengiz yo‘li orqali Bombeydan Istanbulga safari 27 kunni tashkil qilib, u 1923-yil 28-noyabrda Istanbulga yetib boradi. Turkiya vizasi yo‘qligi sababli, Validiy paroxoddan Istanbul va Izmirga tusha olmay, Fransiyaga yo‘l oladi. Validiy va hamrohi Abdulqodir Inon Fransiya vizasini olganligi uchun 1923-yil 20-dekabrda Marselga yetib boradi. Validiy Marselda yonida olib yurgan bir qimmatbaho Buxoro gilamini sotib, moddiy ahvolini yaxshilaydi. Shu bilan Validiy Yevropada 15 oy yurib, faqat 1925-yil yozida Istanbulga keladi[14].

Turkiya barcha tarixiy davrlarda dunyo turklari uchun bir yurt, ikkinchi vatan bo‘lib xizmat qildi. Olti yuz yildan ortiq davom etgan Usmonli turk sultonligi davrida ham, Turkiya jumhuriyati yillarida ham turli sabablar tufayli chetga chiqib ketgan turklar hayoti o‘z yurtidagiga o‘xshagan, ya’ni til, din va madaniyat farqlari bo‘lmagan Turkiyadan qo‘nim topishga intildi. Xususan, XIX asr 70-yillarida yuz bergan Qirim urushi, XX asr boshlaridagi Bolqon urushlari, Birinchi jahon urushi bois Usmonlilar saltanatida yashaganlarning uchta qit’a (Yevropa, Osiyo, Afrika)dan Turkiyaga ko‘chishlari buning yaqqol misolidir.

Bu o‘rinda yana shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, Turkiya hukumati rahbarlaridan Hamdulloh Subhiy (Tangri O‘var) va Rizo Nur kabi turk millatchilari Yevropada muhojirlikda yashayotgan turkiy siyosiy yo‘lboshchilarni Turkiya davlatiga chaqirish siyosatini olib borishdi. Bu siyosat natijasida Turkiston Milliy Birligi tashkiloti raisi Ahmad Zaki Validiy, Edil-O‘rol milliy harakati rahbarlari Ayoz Is’hoqiy, Fuod To‘qtar va Sarbonna universiteti o‘qituvchilari Sadri Maqsudiy (Arsal) Parijdan, Abdulla Battol (Toymas) Finlyandiyadan 1925-yilda Turkiyaga kelishdi. Ularning bir qismi Turkiya hukumatida turli lavozimlarda faoliyat ko‘rsatdi. O‘tmishda o‘z yurtlaridagi siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan Muhammadamin Rasulzoda, Ahmad Zaki Validiy, Usmon Xo‘ja, Ayoz Is’hoqiy, Said Shomil va Ja’far Saidaxmad kabi liderlar siyosiy kurashni davom ettirib, Turkiyada darhol o‘z milliy siyosiy tashkilotlarini tuzishga kirishdilar[15].

Ahmad Zaki Validiy dastlab doktor Rizo Nurning yordami bilan Anqarada Turkiya maorif vazirligi qoshidagi qalamhaqi va tarjima ishlari bo‘limiga tayinlandi. Biroq tez orada u davlat tomonidan Istanbul universiteti tarix bo‘limiga muallim qilib tayinlanishi bilan uning ilmiy va ijodiy faoliyati boshlandi va u moddiy yetishmovchilikdan ham qutuldi[16]. Ana shunday omad Zaki Validiyning yurtdoshi va qadrdoni Fatxulqodir Sulaymonov (u keyinchalik Abdulqodir Inon nomini oldi)ga ham kulib boqib, u ham Istanbul universiteti assistenti bo‘ldi[17]. Biroq bunday omad hammaga ham kulib boqmadi. Turkiston ozodlik jamiyati Markaziy Qo‘mitasi a’zosi Miyon Buzruk Solihov (1891-1938)Turkistonda tanilgan bir qalamkash edi. Istanbul universitetida o‘qigan (u ma’lum muddat Turkiyada yashagan ham) paytida muhitga hech moslasha olmadi hamda moddiy yetishmovchilik tufayli 1927-yil boshlarida O‘zbekiston SSRga qaytdi. Uning yurtga qaytishi bolsheviklar uchun katta tashviqot-targ‘ibot ishiga aylantirildi.

Prometeychilar harakatiga ilmiy tarafdan ko‘mak ko‘rsatib turgan tashkilot Varshavadagi Sharq instituti edi. Marshal Pilsudskiy davrasiga mansub siyosatchi va senator Stanislav Sedletskiy bu ilm dargohining faxriy direktori bo‘lgan. U 1939-yil sentyabrda Polshani Germaniya va SSSR qo‘shinlari bosib olgach, o‘zini o‘ldirgan edi. Institut direktori esa polyak olimi va jurnalist Vladimir Banjovskiy edi. Prometeychilar Parijda fransuz tilida “Prometey” jurnalini ham nashr qilishdi. Prometeychilik harakatining Varshavadan tashqari Berlin, Parij, Praga, Istanbul, Tehron, Xarbin (Manchjuriya)da o‘z bo‘limlari bo‘lgan hamda u sovet davlatiga qarshi harakatlarni qo‘llab-quvvatlagan. Milliy markazlar faoliyatini moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash Polsha Tashqi ishlar vazirligining Sharq bo‘limi zimmasida bo‘lgan. Varshavada o‘z milliy markazlarini ochib, ish yuritganlar orasida Muhammadamin Rasulzoda, Ayoz Is’hoqiy, Said Shomil va boshqalar bor edi.

Bu paytda Germaniyada Tohir Shokirzoda, Afzal Abusaid, Abduvahob Murodiy, Sobir Ibrohimov, Ahmadjon Ibrohimov singari turkistonlik talabalar tahsil olishgan[18].

Validiyning ilmiy merosini baholashda uning faoliyatini faqat siyosiy qarashlari yoki muhojirlik tajribasi bilan chegaralab qo‘ymaslik muhimdir. Uning ilmiy faoliyati mustaqil yo‘nalishga ega bo‘lib, turkologiya, sharqshunoslik, tarixshunoslik va manbashunoslikning bir nechta sohalarini qamrab olgan.

Shu bilan birga, Validiy faoliyatini o‘rganishda tarixiy davrning siyosiy va ilmiy sharoitlarini ham hisobga olish lozim. XX asrning 1920–1940-yillarida Yevropa va Sharq o‘rtasidagi ilmiy aloqalar murakkab siyosiy sharoitda rivojlangan. Shu sababli Toganing xorijdagi ilmiy faoliyati ham uning shaxsiy ilmiy izlanishlari, akademik muhit va davrning tarixiy sharoitlari o‘zaro ta’siri natijasida shakllangan.

Xulosa:

XX asr 20-yillari boshlarida muhojirlikka jo‘nab ketishga majbur bo‘lgan Ahmad Zaki Validiy Afg‘oniston, Eron, Turkiya hamda Yevropa davlatlariga borib joylashgan. Ahmad Zaki Validiy, Mustafo Cho`qay va Usmon Xo‘jalar sovet rejimi hamda komunistik g‘oyaga qarshi istiqlol kurashini mafkura jabhasida davom ettirib, asosan Turkiya va Yevropada faoliyat ko‘rsatdilar. Juda katta qiyinchiliklar, moddiy yetishmovchiliklar va boshqalarga qaramay Turkiy xalqlarning bu uch nafar azamat o‘g‘loni xorijda turib Turkistonning milliy ozodlik kurashi yo‘lida sabot bilan faoliyat olib bordilar hamda muayyan natijalarga erishdilar.

Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onning xorijdagi faoliyati uning tarixchi va turkolog sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Eron, Afg‘oniston va Hindistondagi ilmiy safarlari unga noyob qo‘lyozmalar va tarixiy manbalarni izlash imkonini berdi. Parij va Berlin davrida u Yevropa ilmiy muhitiga yaqinlashdi. Vena universitetida Ibn Fadlon merosiga bag‘ishlangan doktorlik tadqiqotini yakunladi, Bonn va Göttingen universitetlarida esa turkiy xalqlar hamda islom tarixi bo‘yicha ilmiy-pedagogik faoliyat olib bordi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Bu haqda qarang: Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи. 343-344-бетлар.

2. Qarang: Türkistan'ın bağımsızlığına hizmet eden "Yeni Türkistan"dan seçilmiş makaleler. Ayaz Tahir Türkistan İdil-Ural vakfı. Proje sorumlusu ve editor Tülay Duran. – İstanbul: Aydoğan matbaası, 2005. – 488 sah.

3. Qarang: Yaş Türkistan. Türkistan Milli İstiklal Fikrine Hezmet Eden Aylık Dergi (1929 – 1939). – İstanbul: Alaş, 1997. 1-cilt. 1929 – 1930. – 520 sah.

4. Ahat Andican. Cedidizm'den bağımsızlığa. Hariçte Türkistan mücadelesi. – İstanbul: Tunç matbaacılık, 2003; Ahat Andican. Turkestan struggle abroad. From Jadidism to Independence. – Haarlem: SOTA Publications, 2003; Аҳад Андижон. Туркистон учун кураш. Биринчи жилд. – Тошкент: "Тафаккур", 2017. 115-бет. 5. Zeki Velidi Toğan. Hatıralar. Türkistan ve diğer müslüman doğu türklerinin milli varlık ve kültür mücadeleleri. – İstanbul, 1969; 2.Baskı. – Ankara, 1999; Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи. Таржимон, илмий таҳрир муаллифи ва нашрга тайёрловчи М.Абдураҳмонов. – Тошкент: "Истиқлол нури", 2014. 447-449-бетлар.

6. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи. Таржимон, илмий таҳрир муаллифи ва нашрга тайёрловчи М.Абдураҳмонов. – Тошкент: "Истиқлол нури", 2014. – Б.433-435.

7. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи. 439-440-бетлар.

8. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. Туркистонда мустақиллик ва озодлик учун курашлар тарихи. 447-бет.

9. Qarang va bir-biriga taqqoslang: Мустафа Шоқай. Шығырмаларынын толық жинағы. Он екі томдық [Том I-XII]. Құрастырған, алғы соз бен түсіндіртелерді жазған Кошім Есмағамбетов.

10. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. – Б.449-450.

11. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. – Б.450.

12. Qarang: Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. – Б.475-476.

13. Qarang: Муҳаммад Иқбол. Чароғи лола // Ахбарони адаб. Жилди 42. – Душанбе: .Адиб, 2020. – С.5-203.

14. Аҳмад Заки Валидий Тўғон. Хотиралар. – Б.487-488.

15. Ahat Andican. Cedidizm'den bağımsızlığa. Hariçte Türkistan mücadelesi. – İstanbul: Tunç matbaacılık, 2003.– S. 247-248.

16. Qarang: Қ.Ражабов, Р.Шигабиддинов. Инон Абдулқодир // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2003. – Б.169.

17. A. Ahat Andican. Turkestan struggle abroad. From Jadidism to Independence. – Haarlem: Sota Publications, 2003. – P. 250.

18. Qarang: А.Йўлдошев. Абдуваҳоб Муродий. – Тошкент: Фан, 2024. 61-бет.

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000